

## 2020-yil 1-mart holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 899 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 594 taga kamdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 960 ta (17,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26 818 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yilning 1-mart holatiga ko'ra 26 818 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,3 ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,2 % savdo, 13,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,5 % sanoat, 11,9 % qurilish, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.03.2020-yil	
	01.03.2019 -yil	01.03.2020 -yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>22 858</b>	<b>26 818</b>	<b>117,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 957	3 676	124,3	13,7
Sanoat	2 858	3 631	127,0	13,5
Qurilish	2 781	3 193	114,8	11,9
Savdo	5 375	6 491	120,8	24,2
Tashish va saqlash	815	915	112,3	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	963	1 240	128,8	4,6
Axborot va aloqa	258	310	120,2	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	515	629	122,1	2,3
Boshqa turlari	6 336	6 733	106,3	25,2

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5 570 ta), Chiroqchi (2 209 ta), Koson (2 103 ta), Qarshi (2 097 ta) va Qamashi (1 784 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (900 ta), Muborak (969 ta) hamda Nishon (1 045 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 960 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 960 ta (15,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,2 % savdo, 13,6 % sanoat, 13,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,9 % qurilish, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 25,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5 317 ta), Chiroqchi (2 148 ta), Koson (2 064 ta), Qarshi (2 045 ta) va Qamashi (1 749 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (896 ta), Muborak (934 ta), hamda Nishon (939 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-fevral oylarida 899 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 1,7 martaga kamaygan.

## Yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (188 ta), Chiroqchi (104 ta), Koson (71 ta) va Qarshi (67 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (31 ta), Shahrisabz (31 ta), Muborak (36 ta), Kasbi (36 ta), Kitob (41 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdo (318 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (165 ta), sanoat (158 ta), qurilish (64 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (14 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (16 ta) hamda tashish va saqlash (27 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-mart holatiga 21 124 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8 571 ta, oilaviy korxonalar – 1 430 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10 629 ta va boshqalar - 494 tani tashkil etgan.



## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 199 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 101 taga yoki 1,9 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-mart holatiga xorijiy kapital ishtirokida 199 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Qarshi shahri (53 ta), va Koson (17 ta), Kitob (15 ta) va Qarshi (15 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor (5 ta), Shahrisabz tumanlari hamda Shahrisabz shahar (5 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 145 tasi qo'shma korxonalar, 54 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>199</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	53	26,7
Shahrisabz sh.	5	2,5
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	11	5,6
Dehqonobod	12	6,0
Qamashi	13	6,6
Qarshi	15	7,5
Koson	17	8,5
Kitob	15	7,5
Mirishkor	5	2,5
Muborak	9	4,5
Nishon	14	7,1
Kasbi	5	2,5
Chiroqchi	8	4,0
Shahrisabz	5	2,5
Yakkabog'	12	6,0


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**



**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yil yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 8 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga kamaygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Koson tumani (3 ta yoki jamidagi ulushi 37,5 %), Yakkabog' (1 ta yoki 12,5 %), Dehqonobod (1 ta yoki 12,5 %), G'uzor (1 ta yoki 12,5 %), Muborak (1 ta yoki 12,5 %), Chiroqchi (1 ta yoki 12,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Qolgan hududlarda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**




Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida-2 ta, Afg'oniston Respublikasi - 1 ta, Turkmaniston Respublikasi - 1 ta, Eron Islom Respublikasi -1 ta, Kanada - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 1 ta va Xitoy Xalq Respublikasi - 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (4 ta), sanoat (4 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1- mart holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20 966 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2020-yil 1-mart holatiga qaraganda 18,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 439 tasi (21,2 %) Qarshi shahri, 1 712 tasi (8,2 %) Chiroqchi, 1 708 tasi (8,1 %) Qarshi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20 966 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6 262 tasi (29,9 %) - savdo, 3 484 tasi (16,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3 481 tasi (16,6 %) - sanoat, 3 058 tasi (14,6 %) - qurilish, 1 166 tasi (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 869 tasi (4,1 %) - tashish va saqlash, 472 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 292 tasi (1,4 %) - axborot va aloqada, shuningdek 1 882 tasi (8,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2020-yil yanvar-fevral oylarida 855 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,7 martaga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik



korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (177 ta), Chiroqchi (101 ta), Koson (66 ta) va Qarshi (60 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (31 ta), Shahrisabz (31 ta), Kasbi (33 ta), Muborak (35 ta) hamda Kitob (39 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (318 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (164 ta), sanoatda (158 ta), qurilishda (64 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (14 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (15 ta) hamda tashish va saqlashda (27 ta) tashkil etilgan.


**Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1- mart holatiga 1 486 tani tashkil etib, ulardan 1 430 tasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 78,4 % oshganligini ta'kidlash lozim.

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,0 % yoki 472 tasi sanoat, 20,8 % yoki 298 tasi savdo, 18,3 % yoki 263 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,1 % yoki 230 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,4 % yoki 34 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 17 tasi qurilish, 0,7 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 8 tasi tashish va saqlash hamda 6,9 % yoki 98 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdo, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>155</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	33	21,3
Shahrisabz sh.	9	5,8
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	15	9,7
Dehqonobod	2	1,3
Qamashi	7	4,5
Qarshi	12	7,7
Koson	10	6,5
Kitob	1	0,6
Mirishkor	-	-
Muborak	7	4,5
Nishon	4	2,6
Kasbi	7	4,5
Chiroqchi	31	20,0
Shahrisabz	9	5,8
Yakkabog'	8	5,2

2020-yil yanvar-fevral oylarida 155 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 6,9 % ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Qarshi shahar (33 ta), Chiroqchi tumanlari (31 ta), G'uzor tumani (15 ta) va Qarshi tumanlari (12 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Mirishkor tumanida tashkil etilmagan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,3 % yoki 47 tasi sanoat, 23,2 % yoki 36 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 22,6 % yoki 35 tasi savdo, 16,1 % yoki 25 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 5,9 % yoki 9 tasi boshqa faoliyat turlari, 1,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 0,6 % yoki 1 tasi qurilish hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:71 230-84-10 (11)**